


Feruz ABDUSAIDOV

QALBIM SADOSI



Feruz ABDUSAIDOV

QALBIM SADOSI

Navoiy-2010



Bu birinchi shery to`plamimni chiqarar ekanman unga butun mehrimni baxsh etdim. Bu yerda yozilgan sherlarda qalbimning tubida yotgan orzu havaslarim, o`y fikrlarim, hayotimda boshimdan o`tgan kechinmalarim yozilgan. Shu sababli ham sherimni nomini “**Qalbim sadosi**” deb nomladim. Agar shery to`plamim sizga yoqsa o`zimni shoyad baxtiyor his etardim. Biron bir kamchiliklarga yo`l qo`ygan bo`lsam oldindan sizlardan uzr so`rayman.

Bu kitobda bitilgan qalbim sadosi.
Adolat bitilgan, sog`inch bitilgan.
Qandaydir baxt ila armon ichida.
Shunday bir bebaho sherim yetilgan.

Termulib qolsam

Shahlo ko`zlaringga termulib qolsam.
G`uncha lablaringdan bo`salar olsam.
Sendek go`zal qizni bag`ringa bossam.
Rozi edim kunlarim azobda o`tsa.

Yuragimni tubidan chiqar dil so`zim.
Uni senga aytishga chidamas yuzim.
Nima qilay vayrondir hatto yuragim.
Bu azobda o`rtangan faqat bir o`zim.

Qo`lingdan ushlariga haqqim yo`q mening.
Seni deb kuylashga haqqim yo`q mening.
Qalbimdagi sevgimni aytolmay senga.
Bu dunyodan ketishga haqqim yo`q mening.

Mayli qalb sirimni o`zing bilgin.
Faqat biroz so`zimga quloq ilgin.
Sevgimni sendan yashirmam sira.
Axir seni sevaman azizam shuni bilgin.

09.11.2006

Qiynama, iltimos jonim

Go`zalim qayerda qolding bunchalik.
Ayriliq degani bo`lar shunchalik.
Sabr toqatning o`zi chidolmaydi menchalik.
Boshqa bunday qiynama iltimos jonim.

Yo`lingga ko`z tikib o`tirdim har tong.
Vujudimni ichidan chiqar edi bong.
Bunday tuyg`u oldida ojiz hatto ong.
Endi meni qiynama iltimos jonim.

Seni ko`rgan insondan rosa so`rardim.
Yuragim azob bersa ko`kragimdan urardim.
Qayda bo`lsam ham jonim seni o`ylab yurardim.
Boshqa meni qiynama iltimos jonim.

Kasalliging bilib qolib jonim rosa o`kindim.
Xudo shifo bersin deb undan rosa o`tindim.
Kuzda sarg`aygan bargdek, yerga men ham to`kildim.
Ketib qolib qiynama iltimos jonim.

Seni juda sevgilim, sog`indim dildan.
Olloh seni yaratgan nafis bir guldan.
Seni jonim sevaman –sevaman jondan.
Faqat meni qiynama iltimos jonim.

04.12.2006

Onam uchun yashayman

Menga faqat dunyoda inson mehri yetishmas.
Yuragimni qilib yara bitishiga qo`yishmas.
Kaminaning hayotin buzib hatto to`yishmas.
Shunday ekan endi men onam uchun yashayman.

Yaxshiyamki yonimda doimo onam bo`lgan.
Azoblarda o`rtangan yuragim zorin bilgan.
O`zgalar dilim ezsa, men uchun jonin bergan,
Bu dunyoda ulug` zot onam uchun yashayman.

Shunday baxtli yashayki qolinggiz hayron.
Baxtim ko`rib g`animlar chopinggiz har yon.

Chunki yomon orzuingiz qilaman vayron.
Onam uchun yashab baxtli qilurman hayron.

09.01.2007

Unutmasin yuraging

Sendan ayrilmoqlik men uchun og`ir.
Niyatga ham jonginam yetdingku oxir.
Mana ketmoqdaman sendan yiroqqa.
Kuzdagi yoshlarim daryodek oqib.

Nega menga aytmayсан meni sevishing.
Qalbingdagi men uchun dil so`zlarni bitishing.
Meni o`ylab tunlari ko`z yosh to`kishing.
Balki g`urur yo`l qo`ymas sevgi so`zin aytishing.

Mayli jonim g`ururing osmondek bo`lsin.
Faqat uni ishlatgin kerakli joyda.
Sevgimizga ochib yo`l, osmondagi oy bo`lsin.
Yo`llarimiz yashnatib bizlarga qilsin foyda.

Mayli o`zga yurtlarda sensiz bo`zlab yurayin.
Bu dunyoda ayriliq azobini bilayin.
Qayda bo`lsa ham jonim seni o`ylab yurayin.
Agar meni unutsang ham unutmasin yuraging.

Yigitlik burchimni ado qilish qarzimdir.
Vatanimni himoya qilish, mening farzimdir.
Sendan jonim yagona mening so`nggi arzimdir.
Agar meni unutsang ham unutmasin yuraging.

19.12.2007

Yigit bo`lay desang

Yigit bo`lay desang, bo`lgin chinakkam.
Yurtingni qo`riqlashni o`ylagin har dam.
Askar bo`lib o`tagin yigitlik burchin.
Shunda hech ham bo`lmaysan o`zgalardan kam.

Askarlik ham osonmas shuni ham bilgin.
Zobitlarning buyrug`in chin dildan qilgin.
O`zingnimas otangni-onangni o`ylab
Tinchlik bayrog`ini cho`qqiga ilgin.

Men askar bo`ldimku bo`lingiz siz ham.
Kimlardan kammiz biz aytingchi siz ham.
Yurtning o`g`lonlariga aytaman shuni.
Shu yurtni asrovchi bo`lingiz siz ham.

28.04.2007

O`sha muhabbat

Tohirdek suvlarda oqqan muhabbat.
Majnundek cho`llarda kezgan muhabbat.
Shirinni tunlari xun xun yig`latgan.
Biz bilgan bilmagan o`sha muhabbat.

Osmondagi oyni ham yerga tushirgan.
Yurakdagi muzlarni suvdek eritgan.
Qalbimning tunini kundek yoritgan.
O`sha muhabbatku o`sha muhabbat

02.11.2006

Na qilay

Shahlo ko`zing oshig`ingni adolar etdi.
Lablaringdan olgan bo`sam gadolar etdi.
Dudog`ingdan tishlaganim otangga borib yetdi.
G`azabidan qurqsam magar endi jonim na qilay.

Bu ishimga g`azab qilib daryodek bo`lib toshma.
Imkon topilsa magar mendan qochishga shoshma.
Dudog`ingdan tishlaganim bunisi hali holva.
Bo`sangsiz yashash menga azob bo`lsa na qilay

Jonim seni bir ko`rishda chindan sevib qolgandim.
Seni o`ylab o`rtagan bu yurakdan tolgandim.
Qalbimdagi tuyg`udan tuyib tuyib qongandim.
Lek sensiz yasholmasam aytgin jonim na qilay

Qomatingni ko`z ko`z qilib yigitlarni kuydirasan.
Mendek oshiq yigitni jonidan ham tuydirasan.
Qalbimdagi bor so`zni sherga solib kuylatasan.
Barcha senga qaraganda chidolmasam na qilay.

Qop qora sumbul soching menga juda yoqadi.
Yurganingda sochlaring daryo bo`lib oqadi.
Shahlo ko`zing doimo juda sirli boqadi.
Ko`zlaringni jodusiga chidolmasam na qilay.

Seni ko`rmay qolsam gar, yuragim urmay qolar.
Tanamdagi tomirlardan tomchilab qonlar oqar.
Chiroyingni ko`rib hatto parilar gullar taqar.
Hammadan ham seni sevsam aytgin jonim na qilay

Endi nima qilishga hatto o`zim hayronman.
Atrofigda doim men, parvonayu giryonman.
Senga yetish dardida chopib yurgan jayronman.
Sendan ajrab qolsam gar chidolmasam na qilay.

Jonim senga erishmoq chun , mayli jonim beraman.
Qalbingga sal tikon botsa, kiprigimda teraman.
Muhabbatning oldida mayli bo`yin egaman.
Ammo yurak azobiga chidolmasam na qilay.

Uyingga tunda borsam erkalanib chiqmading.
Derazangning chetidan bir borgina boqmading.
Senga bergan sevgimni yuragingga taqmading.
Yuragingda sevgimga joy bo`lmasa na qilay.

Qo`lingdan ushlasam yuragim o`ynab ketdi.
Qalbingdan ushlasam, so`zim xudoga yetdi.
Qulog`ingdan tishlaganim yillar o`tib endi bitdi.
Meni yorim demasang jonim aytgin na qilay.

Otang seni majburlab o`zgaga berib ketar,
Shunda bemehr otang murodlariga yetar.
Yillar o`tib yurakdagi yaralar sekin bitar.
Ammo seni unutmam aytgin jonim na qilay

Ammo qayda bo`lsang ham baxtli bo`lsang bas.
O`zgalar seni ko`rib qilsinlar havas.
Faqat baxting qilmasin qaro, biron bir nokas.
Men esa qolgumdir yuragingda bo`lib sas.

Bog`da bulbul sevgimni, barchaga aytaversin.
Muhabbatdan kuygan yurak, dostonini eltaversin.
Mendek oshiq yigitning dardini kuylaversin.
Muhabbatdan kuygan bo`lsam ayting do`stlar na qilay.

Muhabbatning dardi ham bo`lar ekan beshavqat.
Vujudingni o`rtab dil, bo`lar ekan behimmat.
Bu kurashda yengsang gar, sevgi ham ulug`nemat.
Lek sevgidan kuygan bo`lsam, ayting do`stlar na qilay.

25.11.2006

Dunyoda yashadim, o`qidim, undim.
Azobu uqibat neligin ko`rdim.
O`ylarsiz bu go`dak neni bilsin deb.
Ammo men hayotning ozorin bildim.

Hayotda tuhmat ko`p yomoni minnat.
O`zicha vaqtining sonyasi qimmat.
Oddiy insonlarni qilmaydi nazar.
Bizdek bir insondan qilurlar hazar.

09.01.2007

Pinhona sevaman

Farishtam ismingiz sizga yarashgan.
Ollohim ham chiroydan sizga qarashgan.
Sizni deb yigitlar hatto talashgan.
Men bo`lsa pinhona sizni sevaman.

Men qidirgan yor albatta siz siz.
Yuraklarni o`rtovchi chiroyli qizsiz.
Jonginam baxtlisiz hozir ham mensiz.
Ammo men pinhona sizni sevaman

Dunyoda go`zallar ko`plab bo`lsa ham.
Osmondagi yarim oy kunduz to`lsa ham.
Sizni deb tanamdan jonim chiqsa ham.
Baribir pinhona sizni sevaman.

Muhabbatning sitamlari

Sizning husningizni, ko`rishgan chog`da,
Insonlar shu onda, oshiq bo`ladi.
Chehrangizni ko`rgan, hatto go`zal oy.
Alamidan chidolmay tezda so`ladi.

Sizga qarashganda, xuddi quyoshdek.
Yuzingizdan nafis, nurlar taralar.
Shahlo ko`zlaringiz, mendik insonni.
Yuragini tig`siz o`tda yaralar.

Nima bo`lsa ham mayli azoblarda o`rtyavering.
Mendik bir telbani, qora yerga ko`mavering.
Shunday bo`lgan taqdirda ham,endi ortga qaytolmayman.
Asalginam sensiz endi, bir on ham turolmayman.

04.11.2006

Tilak

Oq kuylakda yangi hayot, yangi uyga uchyapsan.
Qalbingdagi musaffo, hayollarni quchyapsan.

Ortingdan baxt tilab, senga sog`lik tilab biz.
Qadahlarni to`ldirib, maydan qonib ichyapmiz.

Kelinbola yuzingda, tabassum qolib ketsin.
Onajoning duosi ollohga borib yetsin.
Qaynonangni hurmat qil, senga bo`lsin rahim dil.
Qaynonang endi senga bo`ldi, onang,yurak,dil.

03.11.2006

Etasan tahqir

Sen kim bo`psanki, meni, etasan tahqir.
O`zingni o`zingcha osmonga qo`yib.
Ortinga qayrilib qaramadim bir.
Sho`hliklaring uchun yuragim kuyib.

Kim bo`psanki, ataylab ko`zim oldida.
O`zgalarga ham ko`zing qisasani.
Kirib ketmaysanmi ular qalbiga.
Bir so`z demayman-ku, aniq bilasan.

Kim bo`psanki, ko`zimda ko`rmoqchisan yosh.
Mazax qilmoqchisan muhabbatimni.
Va yana oyog`im uzra qo`yib bosh.
O`ynamoq bo`lasan bor hayotimni.

03.11.2006

O`zbekim qo`riqchisi

O`zbekiston xalqining qo`riqchisimiz.
Chegarasin asrabon yuruvchisimiz.
Lozim bo`lsa uni deb, jonin beruvchi.
Halol, jasur va sergak jangchilarimiz.

Yurtimni deb men ham askar bo`ldimku.
Harbiy qasamyod qilib, men ham kuldimku.
Yuraklarni o`rtovchi kuchli tuyg`uni.

Azizlarim chin dildan men ham bildimku.

Askarlik ham osonmas shuni ham bilgin.
Yurtingga muhabbat hissini tuygin.
Vataningni obro`sin ko`kka ko`tarib.
Uning bayrog`ini cho`qqiga ilgin.

2007 y

Onajonim siqilmang

Onajonim siqilmang meni o`ylamang.
Yurak bag`ringiz ezib hech ham yig`lamang.
Askar o`glingizni deb, qalbingizni parchalab.
Tunlari bedor bo`lib vujudingiz tig`lamang.

Axir sizning o`g`lingiz askar bo`ladi.
Kerak bo`lsa yurti deb jonin beradi.
Xalqining qalbiga tikonlar botsa.
Barchasini birma bir kiprigida teradi.

Shunday ekan o`g`lim deb ko`krak keringiz .
Go`zal qizlardan tanlab kelin topingiz.
Yurtining mard, jasur o`g`loni uchun.
Onajonim doimo kulib yuringiz.

2007 y

Muhabbat

Mayli dunyoda bo`lsin muhabbat.
Muhabbat yo`lida qiynalغانlar bor.
Bunday go`zal tuyg`uga ishonmaganlar.
Muhabbat yo`lida bir visolga zor.

Muhabbatga ishonmayman degim keladi.
Sevgiga tula dilga rashqim keladi.
Ammo dilbarimni ko`rib qolsam bir.
Sizni sevaman jonim degim keladi.

Oh, bu muhabbat naqadar mushkul.
Yurakni sevgisiz tasavvur etmas.
Muhabbat qanchalik og`ir bo`lsa ham.
Bu yurak muhabbatdan, bekinib ketmas.

Muhabbatsiz oldinlar qanday yashagan edim.
O`zgalarga sevgisiz yashash yaxshiroq derdim.

Endi bo`lsa boshimga shunday muhabbat tushdi.
Shu muhabbat tufayli yuragim so`z siz cho`kdi.

Muhabbatning qadrini ana endi bilyapman.
Sevgilimning visoliga yetolmasdan o`tayapman.
Mayli endi iloj yo`q bo`lganicha bo`ladi.
Menga atalgan baxt ham, qachonlardir keladi.

26.03.2006

Qalbaki do`st

Do`stlik o`zi nima, bu sira tushunmay qoldim.
Do`stim dushmanlik qilsa, hayratimdan lol qoldim.
Axir o`zi bir vaqtlar, do`stmiz degan ediku.
Endi bo`lsa do`st bo`lib, dushman ishin qildiku.

Aybim nima bilmayman, yurak bag`rim o`rtayman.
Adolatsiz ayriliqqa, endi qandoq chidayman.
Juda yaqin edikku, nima bo`ldi bizlarga.
Yoshlik qilib qo`ydikmi, nafrat solib dillarga.

Oramizni buzdi kim, qaysi notovon inson.
Shu g`alamis tufayli, do`stlik bo`ldiku sarson.
Balki mendadir xato, bo`lsa so`rayman uzr.
Dushmanlar sezib qolsa, ko`rib qilmasin huzir.
Nima bo`lsa ham do`stim, bizni hayot ayerdi.
Istaymizmi yoki yo`q, yo`limizni qayerdi.

02.03.2006

O`tib ketadi

Do`stginam siqilma bo`lmasin xafa.
Bu kunlar albatta o`tib ketadi.
Yuragingni tig`lasang, o`zingga yomon.
Eng baxtli onlaring o`tib ketadi.

Bo`lar bo`lmasni o`ylama zinhor.
Do`stginam yoshliging o`tib ketadi.
O`zingni g`amlarga botirib qo`ysang.
Sog`omonli damlaring o`tib ketadi.

Atrofimiz doimo g`amlarga tula.
Bu g`amlar bir kuni tugab bitadi.
Lek insonning beg`ubor yoshlik onlari.
Hech to`xtamay, o`ylamay, o`tib ketadi.

2005

il so`zlar

Sevgilim kuydirgan armonlaring bor.
Yuragimni yig`latgan dil so`zlaring bor.
O`zgani o`ylab o`rtanar joning.
Seni deb ado bo`lgan ko`z yoshlarim bor.

Yo`limni yoritgan yulduzlaring bor.
Qalbimni yashnatgan dil so`zlaring bor.
Hayotingda ham diydoringga zor.
Mendek g`arib jonginam oshiqqlaring bor.

Sevamanku men seni eshit so`zimni.
G`uncha labingga bosay yuzimni.
Yuragimga abadul, solay seni so`zingni.
Gar ko`zimga boqsang sen, ko`rolgaysan o`zingni.

Seni deb yashayin kela qol jonim.
Aytgan so`zing men uchun faqat hayotim.
Seni deb yuragim o`rtanar doim.
Yolg`iz senga bitilgan dil so`zlarim bor.

2004

Qolur muhabbat

Hayotda o`zi muhabbat qolur.
Bunday tuyg`u hayotga ishonchni solur.
Lekin bu tuyg`ular go`zal bo`lsa ham.
Muhabbat baribir yurakni olur.

Muhabbatni deb yurak bo`ldiku qon.
Boshingga tushadi bu tuyg`u inon.
Tushmaydi deb o`ylama zinhor.
Tushadi chunki sen, bo`lasan inson.

Maslahat
(hazil)

Bu qizlar kutadi, faqat sevgini.
Ayrim qallob yigitlar kutar turtkini.
Qulay imkon topilsa, topib olib ko`nglini.
Asta qochib ketishar berib vada lofini.
Qizlarjon maslahat yaqinlatmang yomonni.
Chunki solib ketishar teringizga somonni.

2004

2004

Muhabbat quzg`unlari

Hozirda odamlar sevgini bilmas.
Muhabbatni o`ziga yaqin ham tutmas.
Dunyoda sevgining quzg`uni kabi.
Odamlar sevgini toptashdan to`ymas.

Ayrim odamlar yirtqichning o`zi.
Baxtli kishilarni ko`rolmas ko`zi.
Yulduzlarning porlashin ko`rib qolsa ham.
Ich etini yeb ketadi o`zi.

Odamlar sevgini pulga chaqadi.
His tuyg`usini yerga sochadi.
Sevgining qadriga yetolmay ular.
Sevib qolganlarni ham turtib o`tadi.

2004

Aytolmas tilim
(hazil)

Go`zal qizlarni ko`rganda ko`zim.
Sevgi haqida aytolmas tilim.
Qani edi yoniga borib ularni.
Sizni sevaman deyolsa tilim.

Sevaman deyish ham qiyin bo`larkan.
Yoki qizning do`sti bo`larkan.

Shu sababli tinch yurishga.
Doim ko`nglim yo`l toparkan.

Bir kuni bir qizga, sevdim degandim.
Yuragimda borin to`kib solgandim.
Afsuski u qizning do`sti bor ekan.
Do`stining mushti qattiq qo`li bor ekan.
Shu shu qizlarni sevdim demayman
Ularning ortidan hech ham yurmayman.

2004